



Shahnoza Yeshimbetova

O'zbekiston Respublikasi fanlar
akademiyasi Tarix instituti mustaqil
izlanuvchisi,

TDTTrU akademik litseyi o'qituvchisi
yeshimbetovashahnoza@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15486943>

QORAQALPOQ BALIQCHILIGI MODDIY MADANIYATIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya: Maqolada qoraqalpoq xalqi moddiy madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan baliqchilik anjomlari haqida so'z boradi. Muayyan bir xalqning madaniyati dastlab ushbu xalqning ijtimoiy tarixiy davrda yaratilgan moddiy va ma'naviy faoliyatining o'ziga xos tomonlari, xususiyatlari, o'zaro aloqalari bilan belgilanadi. Ushbu moddiy madaniyatda saqlanib qolingan ajnomlarning mahalliy xalq orasida nomlanishi, axborotchilar tomonidan olingan ma'lumotlarda qanday nomlanishi o'rin olgan.

Kalit so'zlar: baliq, "qarmaq", "qayiq", "qaza", "shanshq", "Ilme", "qafas", "kershi", "ЖЫЛЫМ", "ЖЫЛЫМНЫНГ ХАНЫ".

Inson tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratilishi oddiylikdan murakkablikka qarab o'zgarib boruvchi jarayon bo'lib, uning o'tmishi va hozirgi ko'rinishi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjuddir. Har bir madaniyat o'sha davr ehtiyojlaridan kelib chiqib yaratiladi, insoniyat dastavval o'zining moddiy ehtiyojlarini

qondirish uchun moddiy boyliklarni, keyinchalik ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib ma'naviy boyliklarni yaratgani tarixdan ma'lum.

Inson dastlab kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil xo'jalikda ishlatiladigan moddiy boyliklar: oziq-ovqat, turar-joy, kiyim-kechak, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlarini ishlab chiqargan. Ushbu moddiy boyliklar ma'lum bir xalqning mehnati, qobiliyati, tajribasi asosida vujudga kelgan[1,-B.9-10.].

Qoraqalpoqlarning moddiy va ma'naviy madaniyati, hayotining madaniy an'analari, etnik xususiyatlarini chuqur hamda tizimli ilmiy tadqiq etish 1940 yillardan boshlangan. 1920-1930 yillarda Qoraqalpog'iston hududida o'z faoliyatini amalga oshirgan turli ekspeditsiyalar qatorida A.L.Melkov nomidagi Qozog'istonni o'rganish jamiyatining qoraqalpoq hunarmandlari hayotiga oid tadqiqotlarini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ekspeditsiya rejalarida kinoga yozib olish va hunarmandchilik buyumlarini tekshirish masalasi bo'lsa ham, A.L.Melkov o'sha davrdagi qoraqalpoqlar hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan masalalar doirasini ancha kengaytirgan. Xususan, sug'orish inshootlaridan "qazu" ya'ni qishloq xo'jalik ishlariga doir ko'plab foto suratlar berilgan. Shunindек, baliqchilik fermalari, qayiqlar, baliq ovlash uskunalari, baliqchilikning o'ziga xos xususiyatlarini, qoraqalpoq xalqining kundalik turmush tarzlarini aks ettiruvchi ilk fotografiya hujjatlari hisoblanadi [2,-C.25.]. 1937 yildan boshlab Xorazm arxeologiya va etnologiya ekspeditsiyasi (XAEE) rahbari professor S.P.Tolstov mahalliy aholining etnogenezi va etnik madaniyatini o'rgangan. Ekspeditsiya Qoraqalpog'iston, O'zbekistonning Xorazm viloyati va Turkmanistonning Toshhovuz viloyati hududida amalga oshirilgan. Ushbu taqqiqotlar Qoraqalpog'istonda ilm-fanning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Xorazm ekspeditsiyasining ishtirokchisi hisoblangan U. X. Shalekenov Amudaryoning quyi oqimida yashagan qoraqalpoqlar va qozoqlarning madaniyati, ularning xo'jaligi va turmush tarzi haqida o'zining "Amudaryo quyi oqimidagi qozoqlarning XVIII-XX asrlarda qoraqalpoq xalqlari bilan o'rnatgan munosabatlar

tarixi” nomli tadqiqotini nashr etishga muvaffaq bo‘lgan. Ushbu nashr nazariy jihatdan alohida qiziqish uyg‘otadi. Muallif dastlabki manbalar sifatida Sirdaryo va Orolbo‘yida baliqchilikning uzoq tarixini ko‘rsatib, nasliy baliqchilarning maqollarini ya’ni “agar siz qimiz ichmoqchi bo‘lsangiz shimoliy dashtlarga boring,” agar siz baliq iste’mol qilmoqchi bo‘lsangiz shimolda qoling” deb nomlanishini, unda shimoliy cho‘ldagi ko‘chmanchi hayot, baliqchilik va dehqonchilik bilan bog‘liq turmush tarzini aks ettirganini ko‘rish mumkin.

Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimi, Orolbo‘yidagi qozoqlar uchun baliq ovi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muhim tirikchilik manbai bo‘lgan. Shalekenovning yozishicha, Orol dengizi va Sirdaryo bo‘yida baliqchilik qadimdan rivojlangan bo‘lib, XIX asr oxiriga kelib sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan va yirik baliq sanoatchilari paydo bo‘lgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, shuningdek, Amudaryo va Orol dengizida kemachilikning rivojlanishi munosabati bilan Rossiya kapitalining ta’siri ostida Orol dengizi va Amudaryo etakalarida baliq resurslarini o‘zlashtirish ishlari va mayda sanoat korxonalari (kichik zavodlar) qurila boshlangani, ya’ni Qoraqalpog‘iston va unga tutash hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini tasvirlagan[3,- il.47.].

Qoraqalpog‘iston - O‘zbekiston tarkibiga kiruvchi suveren respublika bo‘lib, o‘zining qadimiy tarix va boy madaniy an‘analariga ega bo‘lgan Markaziy Osiyoning qiziqarli mintaqalaridan biridir.

Qoraqalpoqlar yarim ko‘chmanchi xalq bo‘lib, ularning ajdodlari pecheneg va o‘g‘uz qabilalari turmush sharoitlarini yoritib bergan arxeologik va tarixiy ma’lumotlar qoraqalpoq xo‘jaligining chorvachilik, dehqonchilik va baliq ovlash kabi kompleks tipdagi xo‘jalik yuritganligidan dalolat beradi[4,-B.10.].

Orolbo‘yi qoraqalpoqlari va qozoqlari turli xil suv havzalarida, daryo va ko‘llarda, dengizda baliq ovlash uchun moslashtirilgan juda ko‘p turli xil baliq ovlash asboblarini bilganlar. Ammo ularning barchasi ibtidoiy bo‘lgan, ya’ni Rossiyaga qo‘shilishdan oldin Janubiy Orol dengizida baliq ovlash iste’mol xarakteriga ega

bo‘lib, ular ibtidoiy baliq ovlash vositalaridan foydalangan holda baliq tutishganlar. Delta kanallarida va ko‘llarda yirik baliqlarni ovlash uchun qoraqalpoqlar **“qaza”** deb ataladigan qamishdan tayyorlanadigan va kanallarni to‘sib qo‘yadigan inshootlardan foydalanganlar. Bu aylana shakldagi panjaraning markazida teshik bo‘lib, baliqlar oqimga qarshi borib qamishdan yasalgan tuzoqqa tushib qolgan va qafasdan chiqish olishmagan. Baliqchilar nayza yoki qo‘llari bilan baliqni qafasdan olishgan[5,-C.31.].

Daryolarda va dengiz qirg‘oqida baliq ovlash uchun **“shanshq”** deb atalgan uchta tishli, uchburchak shakldagi nayzalar ishlatilgan. Uning o‘rta tishi qisqa bo‘lgan. Sohilbo‘yi qoraqalpoqlari orasida-muyten, qo‘ldovli, ashamayli, qiyat va boshqa urug‘larda baliqchilik chuqur tarixiy an‘analarga ega bo‘lib, muyten urug‘lari orasida hatto ajdodlari tamg‘asida ularning qadimiy baliq ovlash quroli-“sanchqi” (“shanshq”) tasvirlangan.

“Qarmaq”-bu qoraqalpoq xalqining baliq ovlash uchun ipga bog‘lab, suvga tashlab qo‘yiladigan o‘tkir uchli maxsus ilgakli va unga ip bog‘lanadigan uzun tayog‘ shaklidagi baliq ovlash asbobidir. Axborotchi Allambergenov Gulmurod yoshligidan baliq ovlashga qiziqqani, asosan baliqni “qarmoq” bilan ovlashini aytib o‘tdi. Hozirda qarmoqlar narxi 300 mingdan boshlanishini, qarmoqni tashlab tinch, shovqinsiz va baliqlarga ko‘rinmasdan ovlashni ta’kidlab o‘tdi[6,-2025.].

Shuningdek, axborotchi Yeshmurotov Mavlon qarmoqning narxi haqida to‘xtalib, eng oddiy qarmoq narxi 25 ming so‘mdan boshlanadi, hamma uchun qulay bo‘lgan qarmoq narxi esa 300 yoki 400 mingdan, shu bilan birga katta daryo, dengizlarda foydalanadigan qarmoq turlari bor, ularning narxi bir milliondan ikki milliongacha bo‘ladi. Bizning shaharda esa qulay va hamyonbob bo‘lgan 300, 400 minglik qarmoqdan ko‘proq foydalanishadi. Shaxsan o‘zim ham Xitoydan kirib kelgan shunday qarmoqdan sotib olganman va Aqchako‘lga baliq oviga borib turaman. Asosan sazan,ilon baliq tutganman, bu mening qiziqishim,deb fikrini yakunladi[7,-2025].

“Atmaqarmaq”- qoraqalpoqlarda “ilmak”ning qarmoq shakli bo‘lib, qayiqalar manziliga yetganidan keyin ilmak suvga tashlanadi. Bu qayiqning siljib ketmasligi uchun qo‘llanilgan. Bunday qarmoqning dastasi qancha uzun, baliqning qarmoqqa tushganda tortish uchun otilgan ipi ham uzun bo‘lsa, chuqurga otish shuncha qulay bo‘ladi. Qarmoq ipiga ilingan qo‘rg‘oshin po‘kaki baliqning kelganini bildirgan.

“Ilme”- (mahalliy nomi-“irg‘aq”) qish payti qoraqalpoq xalqining ko‘llardagi muz teshiklarda baliq ovlash quroli bo‘lib, tutqichli va o‘tkir uchli, uzun temir tayoq o‘tib ketayotgan baliqning ostiga ehtiyotkorlik bilan ilib qo‘yilib, tezlik bilan qorni ostiga ilgaklangan, so‘ngra muzga tortib oladigan asbobidir[8,-C.121.]. Axborotchi Yeshmurotov Mavlon bu haqda ma’lumot berib shunday dedi: “ Qoraqalpog‘iston Respublikasida yashovchi o‘zbeklar orasida bu asbob **“irg‘aq”** nomi bilan ataladi, baliqchilar qishda muzni teshib, ya’ni baliqlar harakatsiz bo‘lgan paytda, tutish oson bo‘lishi uchun foydalanganlar[7,-2025.].

“Qafas”- qarmoq bilan ovlangan katta baliqlarni ilgakdan olib qafasda suvga tashlab qo‘yish, ya’ni keyingi ovi baroridan kelishi uchun.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Ellikqal’a tumani, “Bo‘ston-Turizm”(Aqchko‘l) dam olish maskani

“Kershi”- qoraqalpoqlarda “cho‘lpi” yoki “sho‘lpi” mahalliy nomi bilan yuritiluvchi, uzun dastali, katta uchburchak yoki aylana qolip bo‘lib, uning ustiga to‘r

oʻrnatilgan. Suvga tashlanganda toʻr gorizontal holatda joylashtiriladi va keng aylana oʻtish joyi qoldiriladi. Bunday toʻr qirgʻoq yaqinida daryo yoki kanal tubiga qoʻyiladi va baliqlar toʻrga tushganda baliqchining toʻr bilan romni koʻtarib ovni olib chiqishiga imkoni boʻlgan.

Baliq toʻrlari- **“ay”**, **“жылым”** qoraqalpoqlarning eng qadimgi va koʻp qirrali baliq ovlash qurollaridir. Bu ikkita toʻrning farqi qismlarning shakli, oʻlchami va nomlarida. Qoraqalpoqlar **“жылым”** yordamida qish faslida muz osti teshiklaridan baliqlar tutishgan. Muz teshigi turli joylardan teshilgan va bu baliqlar yashash joyiga haydab borilgan. Koʻp baliqlar yigʻilganda ular baliqlarni suvdan tortib olishganlar. Axborotchi Oʻrazaliyev Xalilla *“otam metall qayiqda qish faslida baliq oviga borardi, bu uning hobbisi edi. Ular muzni teshib ovni kunning ikkinchi yarmida mayda toʻqilgan toʻrni tashlab ertasi kuni ertalab olishardi, shu bilan birga **“sanchqi”** va **“choʻlpi”** bilan ham baliq ovlaganlar, asosan sazan, ilon, laqqa baliq ovlardi, baliqlarni qopga solib olib kelardi, hamda qoʻni-qoʻshnilar, qarindosh-urugʻlarni chaqirib baliq ziyofati tashkil qilardi. Shunindek, otam baliqdan **“uxa”** yaʼni baliq shoʻrva, bolalar uchun qiltanoqsiz laqqa baligʻidan **“baliq qovurdoq”** pishirtirardi. Xullas biz bolaligimizdan baliq isteʼmol qilib katta boʻlganmiz, bizni xonadonimizda oyda emas- kunda baliq yeyish odatiy holga aylangan, deb oʻz bolaligini eslab oʻtdi[9,-2025.].* Baliqchilar mehnatining oʻziga xos xususiyati ovning maxsus shakllarini belgilab bergan, **“жылым”** bilan baliq ovlaganda baliqchilar odatda toʻr toʻqishda 10-12 kishi guruh boʻlib birlashgan. Bunday paytda turar joy jamoaviy mulk boʻlgan, baʼzan esa egasiga tegishli yoki jamoaviy baliq ovlashning egasi yoxud obroʻli baliqchilardan biri-**“жылымнын ханы”** boshqargan. Ovning eng katta qismi ham aynan oʻsha egasiga tegishli boʻlib, bu yerda ibtidoiy jamoa shaklidagi ishlab chiqarish munosabatlari elementlari saqlanib qolganini koʻrish mumkin.

Baliqchilarning yoz faslida foydalanadigan transport vositasi bu **“qayiq”** va **“sal”**, qishda esa **“shana”** boʻlgan. Oʻziga toʻq baliqchilar qayiqlarda, kambagʻallar esa uzun tayoq bilan boshqariladigan ibtidoiy sallardan foydalanganlar. Qayiqlar kichik

bo‘lib, ular mahalliy **“aqtal”**, **“qaratal”**, **“to‘rang‘il”** dan yasalgan va temir, yog‘och hamda qamish bilan mustahkamlangan. Qoraqalpoqlar orasida faqat to‘rtburchak yelkan asosiy bo‘lgan, ular qayiq rolini boshqarishni bilmaganliklari uchun eshkak yordamida boshqarganlar. Shu o‘rinda axborotchi Yeshmuratov Mavlon: qayiq har xil o‘lchamda bo‘ladi, ya’ni bir yoki ikki kishilik. Qoraqalpog‘istonda metallardan qilingan eshkakli qayiqlar yordamida ham ota-boblarimiz baliq ovlashgan. Hozirgi kunda esa baliqchilar benzin bilan yuradigan motorli qayiqlardan foydalanmoqda. Shuningdek, puflanadigan qayiqlar ham baliq ovlashda asosan ko‘llarda qo‘llaniladi, ularning narxi 500 mingdan boshlanadi, deb ma’lumot berib o‘tdi[7,2025.].

Ta’kidlash zarurki axborotchi Yeshmuratov Mavlon **“dudan”** mahalliy nomli

baliq ovlash quroli haqida to‘xtalib, uni tut daraxtining dolidan tayyorlashgani, chunki u suvga chidamli, chirib ketmaslik xususiyatiga egaligi, o‘lchami 30x30 sm qilib aylana shaklda suv oqimiga qaratib qo‘yiladi va baliq oqimiga suzib, uning ichiga kiradi, hamda u orqa tomonga qaytishni bilmaydi, natijada dudanni ko‘tarib olib shu tarzda baliqlar ovlanganligini ta’kidladi. Hozirda dudandan kam foydalaniladi, chunki zamonaviy baliq anjomlari turlari ko‘payib ketishidan sodda qurollarga ehtiyoj susaygan.

Baliq ovlash vositalari va transportlarining oddiyligi sababli baliqchilarning mahsuldorligi juda past edi. Masalan, Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi arafasida Amudaryoning quyi oqimida bir yillik baliq ovlash taxminan 5000 pudni tashkil qilgan[10,-C.132.]. Biroq bu yillarda qoraqalpoqlar tomonidan bosib olingan Shimoliy Xorazm xonlik va unga tutash chorvachilik hududlari uchun asosiy baliq yetkazib beruvchi hudud bo‘lgan[11,-C.96.].

“Baliq ovlash ikrani”-qoraqalpoq o‘zbeklari orasida baliq ovlashda ishlatilgan, bu haqda axborotchi Allambergenov Gulmurod 2003-2004 yillarda Qozoqdaryoda ikran bilan baliq ovlaganman. Bu anjom to‘rtburchak, oddiy qurol bo‘lib, uning yordamida 20, 25 kg baliq ushlaganman. Hozirgi kunda bunday quroldan foydalanilmay qo‘yilgan.

Shu bilan birga **“аман алы”** quroli yordamida baliq ovlashni 1973-1975 yillarda eshitganman, anjom daryoning soy joylariga, oqim suvlarga, cho‘kib qolgan qumlar va qattiq muzlagan joylarga tashlanadi. Bu xuddi dinamitga o‘xshagan portlovchi modda bo‘lgan. Men hozirda **“qarmaq”** yordamida baliq tutaman, uning narxi 300 ming so‘mdan boshlanadi, deya qiziqarli ma’lumotlarini berib o‘tdi[6,-2025.].

Xullas, Qoraqalpog‘istonda baliq ovlash qurollarining xilma-xilligi shu hududning suv resurslari va an’anaviy baliqchilik usullari bilan bog‘liq. Qarmoq va to‘rlar asrlar davomida foydalanib kelinayotgan an’anaviy qurollar bo‘lib, bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan. Zamonaviy baliqchilik texnologiyalari bilan bir qatorda, bu an’anaviy usullar ham mahalliy baliqchilikning muhim qismi bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoraboyev U, G .Soatov. O‘zbekiston madaniyati. -T: “Tafakkur bo‘stoni “, 2011.
2. Курбанова З. И. Этнографическая наука Каракалпакстана: этапы становления, современное состояние. -Н: ”Илим “, 2020.
3. Ўзбекистон Миллий Архиви: Ф.54.О.1.д.620. л.47
4. Жалилов О. XIX-XX аср бошларидаги қорақалпоқ тарихидан: Хива давлат хужжатлари асосида. -Т: ”Фан“, 1986.
5. Жданко Т. А. Быт колхозников рыболовецких артелей на островах Южного Арала. «Сов. этнография», 1961, № 5, стр. 31.
6. Dala yozuvi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, 2025 yil.
7. Dala yozuvi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy shahri, 2024 yil
8. Шалекенов У. Х. Хозяйство Каракалпакии в XIX начале XX веке. - Т: ”Фан“, 1972.
9. Dala yozuvi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy tumani, O‘razboy Jumaniyozov OFY, 2025 yil

10. Богданов М.Н. Очерки природы Хивинского оазиса и пустыни Кизыл-Кум. -Т, 1882.

11.Бунаков Е. В. Тенденция развития капиталистических отношений в Средней Азии накануне присоединения ее к России, в Сб. :Проблемы востоковедения, -М:,1960.№ 9.

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ РЫБОЛОВСТВА У КАРАКАЛПАКОВ

Аннотация: В статье рассматриваются орудия рыболовства, являющиеся неотъемлемой частью материальной культуры каракалпаков. Культура конкретного народа изначально определяется специфическими сторонами, особенностями и взаимодействиями материальной и духовной деятельности этого народа, созданными в определенный общественно-исторический период. К этой материальной культуре относятся названия сохранившихся предметов, встречающиеся у местного населения, а также названия, встречающиеся в сведениях, полученных от информаторов.

Ключевые слова: рыба, “удочка”, “лодка”, “каза”, “острога с тремя”, “илме“, садок”, “рыболовные сети”, “авторитетных рыбаков”.

SOME COMMENTS ON THE MATERIAL CULTURE OF FISHING AMONG THE KARAKALPAKS

Annotation: The article examines fishing implements that are an integral part of the material culture of the Karakalpaks. The culture of a particular people is originally defined by the specific aspects, characteristics, and interactions of their material and spiritual activities, created during a given socio-historical period. This material culture includes the names of preserved items encountered among the local population, as well as those recorded in information obtained from informants.

Keywords: "fish", "fishing rod", "boat", "kaza", "three-pronged spear", "ilme", "creel", "fishing nets", "authoritative fishermen".

